

## **ERTAKLAR BOLALAR TARBIYASINING VOSITASI**

**Erkaboyev U., 16-13-guruuh talabasi**

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng bolalar ,yoshlar ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tabor kuchaydi. Buni biz bolalarga yaratib berilayotgan sharoitlarda ko'rishimiz mumkin. Maktablarda ta'mirlash ishlari olib borilishi, maktab xonalari yangi jihozlar va texnologiyalar bilan boyitilishi, qolaversa yuqori malakali, bilimli pedagog kadrlarning bolalar ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanayotganing barchasi bilimli aqli o'quvchilarini yetishtirishga qaratilgan harakatlardir.

Pedagoglarimizdan yoshlarga bilim berish bilan bir qatorda ularni ezgu maqsadlar yolda ish qilishga, vatanga xolis hizmat qilishga, komil inson bo'lib yetishish uchun zarur ko'nkmalar berish kabi bir qancha talablarni qo'yadi.

Zero prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek "Bizning kejajagimiz, mamlakatning kelajagi, o'mimizga kim kelishiga yoki, boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq . O'sib kelayotgan navqiron avlod, aziz farzandlairimiz, yoshlarimiz bizning quvonchimiz, tayanchimiz va suyanchimiz, g'ururimiz va iftixorimiz" degan shiorni amalda ro'yobga chiqarishni ta'minlashimiz darkor. Bola tarbiyasi avval oiladan boshlanadi so'ng esa bog'cha va maktabda davom etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona-tili, o'qish, odobnoma kabi darsliklarida bir qancha maqol, naql, ertak, hikoya va hattoki sherlarda ham bolalar tarbiyasiga bevosita toxtilib otilgan.

Ertaklar bolalarni to'g'ri so'zlikka, ezzulikka, yaxshilikka, kattalarni hurmat qilishga, bilim olishga, mehnat qilishga undovchi eng asosiy vositadir. Yovuzlik ustidan ezzulikni, yolg'onchilik ustidan rostgo'ylikni, baxillik ustidan sahiylikni, dangasalik ustidan mehnatsevarlikni g'alaba qozonishi bu bolalarda bunday hislatlarga bolgan munosabatni ijibiy tomonga o'zgartiradi. Bola yoshligidan kimgadir taqlid qila boshlaydi. Ertaklar bilan o'sayotgan bola go'yo o'ini ertakdagidagi birir qahramon o'rnida his qiladi. Bu esa bolada yangi fazilatlar paydo bolishiga olib keladi.

Guliston shahar 11-maktab 3-sinf o'quvchilarini bilan bo'lgan suhbatda ularning ertaklarga munosabati ijobiy ekanini guvohi bo'ldim. Ertak qahramonlari bolalarga qanchalik ta'sir etayotganini bilish maqsadida so'rovlar o'tkazdim. Qiz bolalarga "Zumrad va Qimmat" ertagidagi qahramonlarda kimga o'xshashini xoxlaysiz degan savolga ularning barchasi Zumradga deb, o'g'il bolalar esa "To'g'rivoy va Egriboy" ertagidagi To'g'rivoya o'xshashni xoxlashlatini aytildilar. Nima uchun degan savolga ular Zumrad aqlii, mehnatkash, ozoda, shirin so'z qiz ekanini uchun deyishdi. Qimmat esa juda dangasa , tarbiyasisi va ochofat kabi yomon hizlatlar egasi ekanini ta'kidlashdi. O'g'il bolalar Egriboydagi nomardlik, yolg'onchilik, ochko'zlik kabi hislatlarni qoralab, To'g'riboya yomonlik qilsa ham To'g'riboy kechirimlilik qilganini va mardligini yuqori baholashdi. Bundan bolalarni barchasi yaxshi va

yomonni ajrata olishi va o'z fikrlarini aniq dalillar bilan isbotlay olishi bu ularni kelajakda komil inson bo'lishga intilayotganligi aniq ko'rinib turibdi. Ertaklar bolalarni xotirasini mustahkamlash bilan birga ularni aniq fikr yuritish qobiliyatini ham o'stradi. Ertaklarda an'anaviy shior bo'lib qolgan yomonlikka yomonlik bilan emas yaxshilik bilan javob berish eng olivjanob xislatlardir.

Ota-onalarimiz farzandlarga ertak o'qib berish yoki ertak kitoblarni olib berish o'miga ularga afsonaviy kinolarning disklarini olib berish va ular bu ishidan g'ururlanib farzandim falon afsonaviy qahramonga taqlid qiladi, uning kinolarini mazza qilib tomosha qiladi deguvchilar ko'p uchraydi. Ular o'zлari bilmagan holda farzandini tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tqazayotganini sezmaydilar. Bu kinolarda gavdalangan qahramonlar yomonlikka yomonlik bilan javob berishi bu yovuz qahramoning qismati ayanchli, fojeali yakun topishi bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Bu bolalar ertaklarni sevuvchu bolalar kabi kechirimli bo'lish degan eng olivjanob xislat emas qasos, o'ch olish xislati ularni bosh miyasini o'rgimchak to'ridek qamrab oladi. Bu bola kelajakda qanday inson bo'lib yetishadi?

Ertaklar bolalarni yaxshilikka undashidan ularni go'yoki tilsiz tarbiyachisi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ertaklar bola tarbiyasida shubhasiz eng kata vosita deyishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'qtuvchilar bolalarga tarbiya berishidagi eng munosib vositadir. Bolalar go'yoki oqayotgan suv uni yo'lini to'sib yo'nalishini qayirsak u shu tomonga qarab oqa boshlaydi. Unga tosh tashlasak ham, loyqatsak ham u aytganlarimizni qiladi. Ertaklar esa suvni tiniq va to'g'ri oqishi uchun tazalangan ariq misolidir. Biz bolalarga nimani o'rgatsak shuni qiladi. Yaxshi va yomonni ajrata olishmaydi. Ertaklar esa bisz o'rgata olmagan yaxshi fazilatlarni o'rgata oluvchi vositadir. Go'yo ertaklar yaxshilikka yetaklar.